

# **TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI**

**5320900 - «To`qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi»**  
**bakalavriatura ta`lim yo`nalishlari bo`yicha**

## **DIPLOM LOYIHASI**

Mavzu:

122art. Gazlamaning tanda ipi ishlab chqarish uchun  
Truetzschler firmasi uskunalari bilan jixozlangan,  
quvvati 2 ta apparat bolgan yigirish korxonasining  
texnologik loyixasi ishlab chiqilsin.

Talaba:

Maxmudov Aziz Odil o`g`li

Fakultet:

TST

Guruh:

4a-11

Konsultantlar:

1. Kirish

ass. Aripova Sh.R.

dots. Matismailov S.L.

*(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)*

2. Texnologik qism

ass. Aripova Sh.R.

dots. Matismailov S.L.

*(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)*

3. Maxsus qism

ass. Aripova Sh.R.

dots. Matismailov S.L.

*(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)*

4. Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi

dots. Faniev T.A.

*(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)*

5. Iqtisodiy qism

kat.o`qituvchi Akromova R.T.

*(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)*

Rahbar:

dots. Matismailov S.L.

Maslahatchi:

ass. Aripova Sh.R.

Kafedra mudiri:

dots. Fayzullaev Sh.R.

Toshkent – 2015 yil.

# **TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI**

«Tasdiqlayman»  
Dekan dots. Gulamov A.E.

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 y.

## DIPLOM LOYIHASIGA TOPSHIRIQ

Kafedra «Ipak va yigirish texnologiyasi»

Kafedra mudiri dots. Fayzullaev Sh.R.  
(F.I.Sh va imzosi)

Rahbar ass.Aripova Sh.R., dots. Matismailov S.L.  
(F.I.Sh va imzosi)

Topshiriq bajarishga qabul qilindi 20.01.2014 y  
(sana)

Talaba imzosi \_\_\_\_\_

5320900 - «To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi»  
(ta'lim yo'nalishi)

### **Diplom loyihasini tayyorlash bo'yicha topshiriq**

Talaba Maxmudov Aziz Odil o'g'li

1. Loyerha ishining "122 art. gazlamaning tanda ipi ishlab chiqarish uchun,  
«Truetzschnler» firmasi uskunalar bilan jihozlangan, quvvati 2 ta  
apparat bo'lgan yigirish korxonasining texnologik ko'rsatkichlari loyixalash»  
institut rektorining 2014 yil «18» 01 20-T - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Tugallangan diplom loyihasini himoya qilish muddati \_\_\_\_\_

3. Loyerha bo'yicha dastlabki ma'lumotlar \_\_\_\_\_

4. Diplom loyihasida bajariladigan bo'limlar ro'yxati:

A) Texnologik qism \_\_\_\_\_

B) Maxsus qism \_\_\_\_\_

V) Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi \_\_\_\_\_

G) Iqtisodiy qism \_\_\_\_\_

5. Ko'rsatilishi shart bo'lgan chizma-geometrik materiallar ro'yxati:

1. Texnologik uskunalarning joylashuvi; 2. Yigirishning qisqacha rejasi;  
3. Maxsus qism materialari; 4. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari.

6. Loyihaning tegishli bo'limlar bo'yicha konsultantlari:

Texnologik va maxsus qismlar – Matismailov S.L., Aripova Sh.R., Mehnat  
muhofazasi va ekologiya qismi Faniev T.A., Iqtisodiy qismi Akromova R.T.

7. Topshiriq berilgan sana 20.01.2015 y.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>4</b>
<b>I. TEXNOLOGIK QISM .....</b>	<b>6</b>
1.1. Qurilish nuqtasini tanlash va asoslash .....	6
1.2. Gazlama tavsifi .....	9
1.3. Xom ashyo tanlash va asoslash .....	11
1.4. Yigirish sistemasini tanlash .....	15
1.5. Yigirish rejasini tanlash va asoslash .....	18
1.6. O'timlar bo'yicha chiqayotgan mahsulot chiziqiy zichligi va cho'zish miqdorini asoslash .....	18
1.7. Pilik va ipdag'i buramlar sonini asoslash .....	19
1.8. O'timlar bo'yicha chiqaruvchi organlar tezligini asoslash .....	21
1.9. O'timlar bo'yicha mashinalar nazariy unumdonligi hisoblash .....	22
1.10. O'timlar bo'yicha mashinalar unumdonligini hisoblash .....	23
1.11. O'timlar bo'yicha pakovkalar parametrlarini hisoblash .....	27
1.12. Soatbay vazifani aniqlash .....	31
1.13. Korxonaning yordamchi bo'limlari .....	36
<b>II. MAXSUS QISM .....</b>	<b>43</b>
2.1. "Riter" Aerodinamik yigiruv mashinasasi J20 .....	43
<b>III. MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYa QISMI .....</b>	<b>49</b>
3.1. Loyixalanayotgan korxonada baxtsiz xodisalarni taftish qilish va rasmiylashtirish tartibi .....	49
<b>IV. IQTISODIY QISM .....</b>	<b>53</b>
4.1. Yigiruv tsexini ishlab chiqarish dasturi hisobi .....	53
4.2. Mehnat bo'yicha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobi .....	57
4.3. Mahsulot tannarxini hisoblash .....	58
4.4. Yigiruv korxonasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari .....	65
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR .....</b>	<b>66</b>
<b>ADABIYOTLAR .....</b>	<b>67</b>

## **KIRISH**

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va yanada erkinlashtirish bo`yicha qabul qilingan eng muhim chora-tadbirlar, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining ustuvor yo`nalishlarini amalga oshirilishi, engil sanoat korxonalarining jadal rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-may oylarida 3249,7 mld. so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o`sish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan 113,5%ni tashkil etdi.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida o`tkazib kelinayotgan an`anaviy Xalaro O`zbekiston paxta va to`qimachilik yarmarkasi mamlakatimiz iqtisodiyotining yuksak raqobatbardoshligi hamda ulkan salohiyatini yorqin namoyish etishga xizmat qilmoda.

Mamlakatimizda eng yuqori jahon talablariga javob beradigan paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo`yicha tashkil qilingan zamonaviy kompleks itisodiyotimizni jadal rivojlantirishga xizmat qilayotir. Bunday yutuqlarga davlatimiz rahbari Vatanimiz mustaqilligining ilk yillardan sobiq tuzumdan meros qolgan xom ashyo etkazib berishga yo`naltirilgan bir yoqlama iqtisodiyotni tubdan o`zgartirish vazifasini qo`ygani samarasida erishilmoqda. Iqtisodiyotning paxta va to`qimachilik tarmoqi ham jadal rivojlanmoqda. Mazkur jarayon ilgari bo`lgani kabi paxta maydonlarini kengaytirishning intensiv uslublariga emas, balki zamonaviy agrotexnologiyalarni qo`llash hisobidan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, jahon talablariga to`la javob beradigan yangi paxta navlarini joriy etish, paxtakorlar – fermer va dehonlar uchun barcha zarur moddiy-texnik sharoitlarni yaratish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda davlat xaridlarini ta`minlashga asoslangan. Shuni xisobga olgan xolda jaxon bozoridagi yigirish sanoatidagi etakchi firmalarning Truetzscher, Rieter, Marzoli, Toyota ishlab chiqarayotgan texnika texnologiyalari yordamida loyixamizda ushbu firmalarning ishlab chiqargan texnologiyasi yordamida korxonamizni loyixalaymiz.

## **Mavzuning dolzarbligi:**

Loyiha ishining “122 art. gazlamaning tanda ipi ishlab chiqarish uchun, «Truetzscler» firmasi uskunalari bilan jihozlangan, quvvati 2 ta apparat bo`lgan yigirish korxonasining texnologik ko`rsatkichlari loyixalash» mavzusi yuqori texnologiyalarga asoslanganligi, jahon bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh ip yigirish masalalarini qamrab olganligi uchun dolzarb hisoblanadi.

### **Diplom loyiha ishining asosiy maqsadi:**

Tanlangan tolali aralashmadan Uster Cstatistiss 2013 me`zonlariga mos yigirilgan ip ishlab chiqarish uchun texnologik uskunalarini tanlash, yigirish rejasি parametrlarini hisoblash va asoslash.

### **Diplom loyiha ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

1. Berilgan assortimentdagi gazlamaning ipi uchun xom ashyo tanlash va asoslash.
2. Yigirish sistemasi va texnologik uskunalar zanjirini tanlash.
3. Loyihalanayotgan ip uchun yigirish rejasи parametrlarini hisoblash va asoslash.
4. Texnologik o`timlar bo`yicha FVK, IUK, UFK koeffitsientlarini tanlash, amaliy va hisobiy unumdorliklarni aniqlash.
5. Qaytimlar, chiqindilar, xomaki maxsulot va ip chiqishini asoslash.
6. O`timlar bo`yicha pakovkalar massasini hisoblash.
7. Loyiha topshirig`iga ko`ra soatbay vazifani aniqlash, mashinalar sonini hisoblash, korrektirovka qilish, kengaytirilgan yigirish rejasini tuzish.
8. Maxsus qism topshirig`ini bajarish.
9. Loyihaning texnik iqtisodiy ko`rsatkichlarini ishlab chiqish.
10. Mehnat muxofazasi topshirig`ini bajarish.

## II. TEXNOLOGIK QISM

### 1.1. Qurilish nuqtasini tanlash va asoslash

**Oxangaron tumani** viloyatning janubi-sharqiy qismida joylashgan. 1929 yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1957 yilda O'rta Chirchiq va Toshkent tumanlari tarkibiga qo'shilgan. 1971 yil 31 avgustda qayta tashkil etildi). Maydoni 3.19 ming km<sup>2</sup>. Axolisi 79,0 ming kishi, asosan o'zbeklar. shuningdek. tojik, qozoq, qirgiz, rus. Tatar. Ukrain va boshqa millat vakillari xam yashaydi. Axolining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 24,8 kishi (2005). Tumanda bir shaxar (Oxangaron), 8 qishloq fuqarolar yig'ini bor. Markazi – Oxangaron shaxri. Xududi janubi-sharqda Qurama shimol va shimoliy-g'arbda Chotqol tog tizmalari urtasidagi vodiyya joylashgan. Bu tog' tizimlari Qamchik dovonida birlashadi. Iqlimi kontinental. Tuman xududi Oxangaron xududidan Oxangaron daryosi va uning irmoqlari oqib o'tadi. Foydali qazilmalardan qongir ko'mir, miss, rux, molibden, oltin, fluorit, alunit, feruza va qurilish materiallari bor. O'tga chidamli tuproq, qum, shag'al, oxaktoshning zaxiralari katta.

Tumanda 4 ta qo'shma korxona, kichik korxonalar, 170 ga yakin xususiy firmalar, aktsiyadorlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bor. Tsement zavodi mamlakatda ishlab chikariladigan tsementning 60 % ni beradi. «Oxangaron» qurilish zavodi faoliyat kursatadi. Qishlok xujaligida g'allachilik yetakchilik qiladi. Bogdorchilik, chorvachilik, polizchilik bilan xam shug'ullaniladi. 526 fermer xujaligi mavjud. Ekin maydonlariga boshqoli don, poliz va boshqa donli ekinlar ekiladi. Pichanzor va yaylovlar katta maydonlarni egallaydi . Oxangaron o'romn xujaligi mavjud. Tuman jamoa va xususiy xo'jaliklarda qoramol, quy va echki, parranda boqiladi. 53 ta umumiyligi ta'lim, musiqa maktablari, qishloq xujalik va iktisodiyot kasb-xunar kollejlari faoliyat kursatadi. 28 ta jamoat kutubxonasi, madaniy ma'rifiy muassasalar bor. Tuman markaziy kasalxonasi , qishlok vrachlik, 14 feldsher-akusherlik punktlari, 3 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 10 dori xona axoliga xizmat kursatadi. Tuman xududidan Toshkent- Angren temir yuli va Toshkent-Qo'qon –Osh-Kashkar xalkaro avtomobil yuli o'tgan. Toshkent shaxri va viloyat tumanlariga avtobuslar qatnaydi. 1932 yildan Oxangaron gazetasi chiqarila boshlangan.

## Gazlamaning texnik ko`rasatkichlari.

1-jadval

To`q ima nomi	Arti kul	To`q ima eni, Sm	Ipning chiziqiy zichligi, teks			Iplar soni		10 sm to`qimadagi iplar soni		Ipning qisqarishi, %	
			Ta nd a	Arq oq	Mil k	Ja mi	milkd agi	Rt	Ra	a <sub>tanda</sub>	a <sub>arqoq</sub>
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Bo`z	122	91	34	36	34	198 0	48	215	193	7	7

Berdo (Tig')			To`qili shi	Dastg oh turi	To`qi mani sirt zichli gi, g/m <sup>2</sup>	Chiqindi miqdori %		100 pog. metr to`qima uchun sarflanadigan ip miqdori, kg (chiqindilarsiz)	
No mer	1 ta tishga to`g'ri keladigan iplar soni	o`rtalik				Tand a ipi bo`yi cha	Arqoq ipi bo`yich a	Tanda ipi bo`yich a	Arqoq ipi bo`yic ha
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
100	2	4	Polotn o	AT	153	0,90	0,84	7,132	6,798

Bukaev P.T. va boshqalar “Spravochnik xlopkotkachestvo” M.1987 y.

## **1.2. Gazlama tavsifi**

Bo`z chitga qaraganda ancha qalin va og`ir material. Bo`z chitga ishlatiladigan kalava ipga qaraganda ancha yug`onroq karda kalava ipidan polotno urilishida to`kiladi. Tipik bozlarning tandasi 34 teks, arqog`i 36 tekсли kalava ipidan bo`ladi. Bo`zning tanda bo`yicha nisbiy zichligi chitnikiga o`xshaydi, arqogi bo`yicha biroz yuqoriroq bo`ladi. 1m bo`zning massasi 140-160 gramm; eni 61-160 sm bo`z barmoqlarga chitga qaraganda dagalroq unnaydi. Bir xil rangga bo`yalgan bo`zdan maxsus kiyimlar va miyonalar tayyorlanadi. Gul bo`zning fakat bir tomoniga yoki ikki tomoniga bosilishi mumkin. Gul bosilgan bo`z erkaklar ko`ylagi , bolalar kostyumi, ayollilar kuylagi. Pardalar tikish uchun ishlatiladi.

Yo`l-yo`l guli bo`zlar – adres va olacha xalatlar tikishda ishlatiladi. Bo`z kattik, yaltirok va kumushsimon qilib pardozlangan bo`lishi mumkin. Bo`zning texnologik xossalari chitnikiga o`xshaydi. U ancha pishiq bo`lib uncha chuzilmaydi. Bo`zni taxlash, bichish, tikish, dazmollah uncha qiyin emas. Qattiq va yaltiroq bo`zni tikish paytida o`yiklar paydo bo`lishi mumkin. Bo`zni tikishda 100№ li ignalar 40-50№ li g`altak iplar ishlatiladi. Yuvilganda bo`z tanda bo`yicha chitga nisbatan ko`prok (4-6%) kirishadi. Gazlama zichligi  $153 \text{ g/m}^2$  .  $100 \text{ m}^2$  bo`z matosiga sarf bo`ladigan ip miqdori tanda uchun 7,132 kg, arqoq ipi uchun 6,798 kg.

## 34 teks tanda karda ipi ishlab chqarish uchun xom ashyo tanlash va asoslash

KARDA IPINING SIFAT SINFLARI BO'YIChA FIZIK-MEXANIK KO'RSATKIChLARI  
"USTER STATISTIC 2013"

2-jadval

Ip assortimenti		Uzilishdagi uzunlik, $R_{km}$ , sN/teks					$R_{km}$ bo'yicha SV, %				
$N_e$	Tex	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
17,4	34	21,1	19,5	17,4	15,7	14,2	6,9	7,6	8,2	9,2	10,4

### 1000 m ipdagi nuqsonlar (ko`pi bilan), dona

Ingichka joylar					Yo`g'on joylar					Nepslar				
1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
2	3	8	24	63	54	89	158	278	493	40	79	134	203	341

Eslatma: 1, 2, 3, 4, 5 lar tegishlicha 5%, 25%, 50%,  
75%, 95% li sifat sinflaridir

Uster statistic 2007

Xozirgi paytda paxta tolasi HVI sinov qurilmasidan o'tkazilib, natijalardan biri sifatida SSP ko'rsatkichi qayd etiladi. Firma SSP ni hisoblash uchun formulani ishlab chiqqan (1). Paxta tolasi Sifat markazlari aynan shu formulalardan foydalanadilar.

SSP qiymatini hisoblashda HVI sinov tizimi ko'rsatkichlaridan foydalanib, quyidagi formulalarni ham qo'llash mumkin.

Karda ipi uchun:

$$CSP = 165 \sqrt{\frac{L \cdot R_T}{M}} + 590 - 13N_e \quad (1)$$

Bu erda:

L-tolaning yuqori o'rtacha uzunligi, mm;

### **1.3. Xom ashyo tanlash va asoslash**

Chiziqiy zichligi 34 teks tanda ipi uchun quyidagi tipli saralanmalar tavsiya etiladi: Gost -----

3-jadval

Ipning chiziqiy zichligi, teks	Tavsiya qilingan tipli saralanmalar	Izoh
34	5-1	

Q. Jumaniyazov, Y. Polvonov "Paxtani yigirish texnologik jarayonlarini loyihalash" Toshkent 2008 y, 31-bet

Loyihalanadigan korxonada ma'lum yo'g'onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun to'g'ri tola tanlash katta ahamiyatga ega. Yigiriladigan ip tannarxining 70-85 % ini tolaning narxi tashkil qiladi. Tolalarning turlari bo'yicha narxlari ham xar xil bo'ladi.

Bundan tashqari hamma paxta navlarini ham bir birlari bilan aralashtirib bo'lmaydi, chunki ularning xossalari xar xil bo'ladi. Demak, loyixaning eng asosiy qismlaridan biri bu tolaning to'g'ri tanlanishi hisoblanadi.

Ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tanlab olingan tolaning xossaliga bevosita bog'liq. Tola qanchalik sifatli bo'lsa, undan olingan ip shuncha sifatli bo'ladi. Lekin o'rtacha yo'g'onlikdagi ip olish uchun yuqori navdagi paxta tolsi qabul qilinsa, ipning sifati yaxshi, ammo tan narxi baland bo'ladi. Shuning uchun ma'lum yo'g'onlikdagi ip olish uchun shunday tola tanlash kerakki, ishlab chiqarilgan ipning sifat ko'rsatkichlari standartlar talabiga to'liq javob bergani holda tan narx arzon bo'lsin.

Har bir tipdagi paxta tolsi rangi va pishib etilganlik koeffitsienti bo'yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshta navga bo'linadi. 5-tipdagi paxta tolasiga kuyidagi navlar kirib ular tez pishar, tolaning shtapel uzunligi yaxshi, pishiqlik darajasi yuqori. Xozirgi kunda Respublikamiz viloyatlarida etishtiralayotgan paxta navlari An-Bayaut 2, Namangan 77, Andijon 35, Oqdaryo 6, S-4727, Sulton va An-16 xakozalar kiradi.

Bu paxta navlarini kasalga chidamliligi , serxosilliligi va erta pishishini xisobga olib Sulton navini qabul qilib olamiz.

Loyiha ishida aralashma uchun 5 tip I navini 100 % deb qabul qilamiz.

5 tipga paxtaning quyidagi seleksion navlari mansub: An Bayaut 2, Namangan 77, Andijon 35, Oqdaryo 6 va S-4727, loyiha ishida paxtaning kasallikka chidamlili ekanligini, kam suv talab etishini, xo'jalik va texnologik ko'rsatkichlarini inobatga olib, Oqdaryo 6 seleksion navini qabul qilamiz.

**O'zbekiston Respublikasida 2010 yil hosilidan olingan o'rta tolali paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari**

4-jadval

	Tipii	Selektsion navi	MIS Mikroneyri	CTAPLE Shtapel uzunligi 32/dyuyum	UHML Yuqori o'rtacha uzunlik dyuyum*100	CTR Solishtirma uzilish kuchi, gk/teks	UI bir xillik indeksi, %
5	Kelajak	4,60	35,5	111,1	31,2	82,8	

RD Aks ko'rsatish koeffitsienti, %	b sarg'ishlik darajasi, %	ELONG Uzilishdagi uzayish, %	LEAF Lif kodisi	CFI Kalta tolalar indeksi	UHML Yuqori o'rtacha uzunlik dyuyum*100	CTR Solishtirma uzilish kuchi, gk/teks	UI bir xillik indeksi, %
78,2	8,7	6,9	2,1	8,1	138,1	2178,60	

IvaYT kafedrasining “Paxtani selektsion navlarini tanlash” uslubiy qo'llanmasidan.

## **Tolaning sifat ko`rsatkichlaridan foydalanib SCP qiyamatini hisoblaymiz**

$$CSP = 165 \sqrt{\frac{L \cdot R_T}{M}} + 590 - 13N_e$$

Bu erda:

L-tolaning yuqori o`rtacha uzunligi, mm;

Tolaning uzunligi dyuymda berilgan. Uning mm lardagi uzunligini topish uchun, jadval ko`rsatkichini 100 ga bo`lib, 25,4 ga ko`paytirish kerak.

Ya`ni

$$L = \frac{111,1}{100} \cdot 25,4 = 28,2 \text{ mm}$$

R<sub>T</sub> -tolaning nisbiy uzish kuchi, gk/teks;

$$R_T = 31,2 * 0,98 = 30,6 \text{ sH/teks};$$

M - mikroneyr, mg/dyuym; M = 4,60 mg/dyuym;

N<sub>e</sub> - ipning ingliz tizimidagi nomeri; N<sub>e</sub> = 29,5

$$CSP = 165 \sqrt{\frac{L \cdot R_T}{M}} + 590 - 13N_e = 165 \sqrt{\frac{28,2 \cdot 30,6}{4,6}} + 590 - 13 \cdot 17,4 = 2624$$

SCP ning hisobi va jadval qiymatlarini taqqoslaymiz.

$$CSP_{\text{хис}} = 2624 > CSP_{\text{жад}} = 2178,6 \text{ sharti bajarildi.}$$

Demak, xom ashyo to`g'ri tanlangan deb hulosa qilish mumkin.

Xom ashyoning belgilangan talablarni qondira olishini tekshirish uchun ipning uzishdagi uzunligi deb ataluvchi pishiqlik R<sub>km</sub> ni hisoblaymiz.

$$R_{\text{km}} = 1,1 \sqrt{\frac{L \cdot R_T}{M}} + 4,0 - 13 \frac{N_e}{150} = 1,1 \cdot \sqrt{\frac{28,2 \cdot 30,6}{4,6}} + 4 - 13 \frac{17,4}{150} = 17,8 \text{ sN/teks}$$

$$R_{\text{km.xis}} = 17,8 \text{ sN/teks} > R_{\text{km.jad}} = 17,4 \text{ sN/teks}$$

sharti bajarildi, ya`ni Uster statistiss 2013 bo`yicha ip sifat sinfi  
dan katta demak, xom ashyo to`g'ri tanlangan. 50

## **Xulosa:**

Tanlagan tipli saralanma 34 teks tanda ipi ishlab chiqarish uchun barcha texnologik ko`rsatkichlarini qondiradi.

### **1.4. Yigirish sistemasini tanlash**

Loyihalanayotgan ip 34 teks tanda bo`lgani uchun karda yigirish sistemasining xalqali usulini qabul qilamiz.

### **Texnologik jihozlarni tanlash va ularni asoslash.**

Yangi yigirish korxonalarini loyihalash va qurish, mavjud korxonalarini qayta jihozlashning asosi jihozlar va mashinalarning yuqori unmdorligini, xom ashyodan unumli foydalanishni, yuqori sifatli ip yigirishni ta`minlaydigan ilg'or texnika va texnologiyani joriy etishdan iboratdir. Yigirish texnikasi va texnologiyasi jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Bunday holat yangidan quriladigan korxonalarining jihozlari taraqqiyotning borishiga mos ravishda tanlanishini va mavjud korxonalarini qaytadan jihozlashni taqoza etadi. Ip yigirish uchun qabul qilinadigan jihozlar va ularning ketma-ketligi quyidagi asosiy shart-sharoitlariga bog'liq:

- yigiriladigan ip turi va shu ipdan ishlab chiqariladigan mahsulot xossalariga;
- xom ashyo turi va sifatiga;
- yigiriladigan iplarning texnik ko`rsatkichlarini mosligi;
- yigirish rejasi va usuliga;
- korxonaning quvvati va tarkibiy tuzilishiga.

Bitiruv malakaviy ishimda Germaniyaning « Tryuchler » firmasining jixozlaridan foydalandim. Chunki « Tryuchler » firmasi bugungi kunda yuqori unumdarlik va sifatga ega bo`lgan to`qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi etakchi firmalardan biri xisoblanadi. Shuningdek, mashinalar avtomatlashtirilgan va maxsulot sifatini yuqori bo`lishini ta`minlaydi.

**34 teks tanda ipi ishlab chiqarish uchun tavsiya etilgan texnologik uskunalar  
zanjiri**

« Tryuchler » firmasining tavsiyasi	« Riter » firmasining tavsiyasi	Loyixada qabul qilamiz.
Blendomat BO-A	UNIflok A 11	Blendomat BO-A
CP-MF	UNIsiean B 11	CP-MF
MX-1-6	UNImix B 70	MX-1-6
Slenomat SL-S4	UNIflex B 60	Slenomat SL-S4
Cesuromat CP-F	Aerofeed –A 70	Cesuromat CP-F
TS-07	S-60	TS-07
TD-03	CB-D-15 I-o`tim	TD-03 I o`tim
XCR-1000	RCB-D-35 II-o`tim	XCR-1000 II o`tim
Zinser-670	Fluier F 15	Zinser-670
Zinser 351	G 33	Zinser 351

## Tanlangan mashinalarning texnologik tavsifi «Trutzschler» firmasi

5-jadval

t/r	Mashinalar nomi	Markasi	Ishlatiladi gan tolaning uzunligi mm gacha	Maxsulotl arningchiz ikiy zichligi, T (N <sub>e</sub> )	Chikaruvchi ishchi organ tezligi		Chuzish mikdori E	Buramlar mikdori, bur/m	Unumdorl igi, kg/soat	Sarflanadi gan elektr quvvati, Kvt	Mashina ulchamlari		Chiqaruv hi organlar soni
					n min <sup>-1</sup>	V m/min					Eni Mm	Uzunli-gi mm	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1	Avtomatik toy titgich	Blendomat BO-A	60	-	-	-	-	-	1500	4,0-6,0	5164	11300- 51130	-
2	Ko'p funk-tsiyali ajrat-kich	CP-MF	60	-	-	-	-	-	1500	9,0	1664	4485	-
3	6-bunkerli arashtiruvchi mashina	MX-I-6	60	-	-	-	-	-	600	6,0	2264	4633	-
4	3-barabanli tozalagich	Klenomat SL-S 4	60	-	-	-	-	-	800	9,1-11	2664	2995	-
5	Begona jismlardan tozalash	Cekuromat CP-F	60	-	-	-	-	-	1500	9,0	1664	4485	-
6	Tarash mashinasi	TS-07	60	3,0-20 kteks	-	-	-	-	150	12-14	2800	8013	1
7	Piltalash mashinasi I utim	TD-03	60	1,5-7,0 kteks	-	1000	4,0-11,0	-	-	10,5	2550	9330	1
8	Piltalash mashinasi II utim	XCR -1000	60	1,25-7,0 kteks	-	1000	4,5-11,6	-	-	7,5	2605	8200	1
9	Piliklash mashinasi	Zinser-670	60	170 – 1450 teks	1500	50	4-20	10-100	-	31	3100	17665	192 ta gacha (sektsiyad a 12 yoki16 ta)
10	Yigirish mashinasi	Zinser -351	60	107 – 4,0 teks	25000	-	8-80	100-3500	-	38,0	1000	40588	192- 1680(sekts iyada 24 ta)

I va YT kafedrasining “Mashinalarning texnik tavsiflari” uslubiy qo'llanmasi 2014y.

## 1.5. Yigirish rejasini tanlash va asoslash

Yigirish rejasida mahsulotlarning chiziqiy zichliklari, qo'shish soni, cho'zish miqdori, pishitish darajasi va koeffitsientlari, asosiy ishchi organlarning aylanish tezliklari, mashinalarning nazariy unumdorliklari xamda mashinalardan foydalinish koeffitsientlari kabi ko'rsatkichlarni asoslash kerak.

Ushbu ko'rsatkichlarni tanlashda ma'lumotnomalardan, ilg'or korxonalarining tajribalaridan foydalananamiz.

### 34 teks tanda ipi ishlab chiqarish uchun «Osborn tekstil» korxonasining yigirish rejasi

6-jadval

№	Mashinalar-ning nomi va markasi	Chiqayotgan mahsulot chiziqiy zichligi, teks	Qo'shish soni d	Cho'zish soni E	Pishitish miqdori		Chiqaruvchi ishchi organ tezligi		FVK	Nazariy unumdorlik kg/soat
					h <sub>t</sub>	K bur/m	V m/min	p min <sup>-1</sup>		
1	Tarash TS-07	9833	-	81,1	-	-	-	-	0,95	90
2	Piltalash I TD-03	5364	4	7,3	-	-	750	-	0,86	241,6
3	Piltalash I XCR-1000	5364	6	6			750		0,86	241,6
4	Piliklash Zinser-670	766	1	7	-	-		1250	0,78	-
5	Yigirish Zinser-351	30	1	26	34,7	634	-	14000	0,94	39,1

## 1.6. O'timlar bo'yicha chiqayotgan mahsulot chiziqiy zichligi va cho'zish miqdorini asoslash *Tarash mashinasи .*

1. Texnik tavsifda T<sub>pil</sub> = 3-20 ktek
2. «Osborn tekstil» korxonasida T<sub>pil</sub> = 9,8 ktek
3. Loyihada qabul qilamiz T<sub>pil</sub> = 5 ktek

### *Piltalash «I» o'tim*

1. Texnik tavsifda T<sub>pil</sub> = 1,5÷7,0 ktek d= 4-8
2. «Osborn tekstil» korxonasida T<sub>pil</sub> = 5,3 ktek d= 8

3. Loyihada qabul qilamiz  $T_{pil} = 5$  kteks  $d=8$

$$E = \frac{T_{kup}}{T_{uu\kappa}} \cdot d = \frac{5}{5} \cdot 8 = 8$$

### *Piltalash «I» o`tim*

- |                                          |                                        |
|------------------------------------------|----------------------------------------|
| 1. Texnik tavsifda                       | $T_{pil} = 1,5 \div 7,0$ kteks $d=4-8$ |
| 2. « <b>Osborn tekstil</b> » korxonasida | $T_{pil} = 5,3$ kteks $d=8$            |
| 3. Loyihada qabul qilamiz                | $T_{pil} = 5$ kteks $d=8$              |

$$E = \frac{T_{kup}}{T_{uu\kappa}} \cdot d = \frac{5}{5} * 8 = 8$$

### *Piliklash*

- |                                          |                                |
|------------------------------------------|--------------------------------|
| 1. Texnik tavsifda                       | $T_{pil} = 1,25 \div 7,0$ teks |
| 2. « <b>Osborn tekstil</b> » korxonasida | $T_{pil} = 766$ teks           |
| 3. Loyihada qabul qilamiz                | $T_{pil} = 700$ teks           |

$$E = \frac{T_{kup}}{T_{uu\kappa}} \cdot d = \frac{5000}{700} \cdot 1 = 7.14$$

### *Yigirish*

- |                                          |                       |
|------------------------------------------|-----------------------|
| 1. Texnik tavsifda                       | $T_{ip} = 4-107$ teks |
| 2. « <b>Osborn tekstil</b> » korxonasida | $T_{ip} = 30$ teks    |
| 3. Loyihada qabul qilamiz                | $T_{ip} = 34$ teks    |

$$E = \frac{T_{kup}}{T_{uu\kappa}} \cdot d = \frac{700}{34} \cdot 1 = 20.6$$

## **1.7. Pilik va ipdag'i buramlar sonini asoslash**

$$K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T}} \quad \text{bur/m}$$

bu erda:

$a_t$  = pishitish koeffitsienti bo`lib bu koeffitsient tola shtapel uzunligiga va mahsulot chiziqiy zichligiga qarab ma`lumotnomadan qabul qilib olinadi.

$T$  = pilik yoki ipning chiziqiy zichligi, teks.

### *Pilikdagi buramlar soni*

$T_{pil} = 700$  teks

$$L_{\text{sht}} = 33,1 \text{ mm}$$

$a_t = 10,38$  Q. Jumaniyazov, Y. Polvonov "Paxta yigirish texnologik jarayonlarini loyihalash" 90-91 betlar

$$K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T_{un}}} = \frac{10,38 \cdot 100}{\sqrt{700}} = 39,24 \text{ bur/m}$$

$$\alpha_N = \frac{\alpha_T}{0,312} = \frac{10,38}{0,3162} = 32,82$$

$$\alpha_E = 0,033 \cdot \alpha_N = 0,033 \cdot 32,82 = 1,08$$

$$TPI = \alpha_E \cdot \sqrt{N_e} = 1,08 \cdot \sqrt{0,843} = 0,99 \text{ bur/d}$$

$$K = 39,38 \cdot TPI = 39,38 \cdot 0,99 = 39,04 \text{ bur/m}$$

### *Ipdagı buramlar soni*

$$T_{\text{ip}} = 34 \text{ teks}$$

$$L_{\text{sht}} = 33,1 \text{ mm}$$

$a_t = 34,4$  Q. Jumaniyazov, Y. Polvonov "Paxta yigirish texnologik jarayonlarini loyihalash" 93-95 betlar

$$K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T_{un}}} = \frac{34,4 \cdot 100}{\sqrt{34}} = 590 \text{ bur/m}$$

$$\alpha_N = \frac{\alpha_T}{0,312} = \frac{34,4}{0,3162} = 108,8$$

$$\alpha_E = 0,033 \cdot \alpha_N = 0,033 \cdot 108,8 = 3,59$$

$$TPI = \alpha_E \cdot \sqrt{N_e} = 3,59 \cdot \sqrt{17,35} = 14,95 \text{ bur/d}$$

$$K = 39,38 \cdot TPI = 39,38 \cdot 14,95 = 588,9 \text{ bur/m}$$

## 1.8. O'timlar bo'yicha chiqaruvchi organlar tezligini asoslash

### *Tarash*

- |                                 |                          |
|---------------------------------|--------------------------|
| 1. Texnik tavsifda              | $A_n = 150 \text{ kg/s}$ |
| 2. «Osborn tekstil» korxonasida | $A_n = 90 \text{ kg/s}$  |
| 3. Loyihada qabul qilamiz       | $A_n = 100 \text{ kg/s}$ |

$$n_{a\kappa c.\delta a p.} = \frac{A_n \cdot 1000}{\pi \cdot d_{a\kappa c.\delta a p.} \cdot 60 \cdot T_{nul} \cdot e} = \frac{100 \cdot 1000}{3,14 \cdot 0,706 \cdot 60 \cdot 5 \cdot 2} = 75 \text{ min}^{-1}$$

$$V_{a\kappa c.\delta a p.} = \pi \cdot d_{a\kappa c.\delta a p.} \cdot n_{a\kappa c.\delta a p.} = 3,14 \cdot 0,706 \cdot 75 = 166,3 \text{ m/min}$$

### Piltalash «I»

- |                                 |                |
|---------------------------------|----------------|
| 1. Texnik tavsifda              | V = 1000 m/min |
| 2. «Osborn tekstil» korxonasida | V = 750 m/min  |
| 3. Loyihada qabul qilamiz       | V = 800 m/min  |

$$n_{qul.} = \frac{V}{\pi \cdot d_{qul.}} = \frac{800}{3,14 \cdot 0,038} = 6705 \text{ min}^{-1}$$

### Piltalash «I»

- |                                 |                |
|---------------------------------|----------------|
| 1. Texnik tavsifda              | V = 1000 m/min |
| 2. «Osborn tekstil» korxonasida | V = 750 m/min  |
| 3. Loyihada qabul qilamiz       | V = 700 m/min  |

$$n_{qul.} = \frac{V}{\pi \cdot d_{qul.}} = \frac{700}{3,14 \cdot 0,038} = 5866 \text{ min}^{-1}$$

### Piliklash

- |                                 |                                   |
|---------------------------------|-----------------------------------|
| 1. Texnik tavsifda              | $n_{rog} = 1500 \text{ min}^{-1}$ |
| 2. «Osborn tekstil» korxonasida | $n_{rog} = 1250 \text{ min}^{-1}$ |
| 3. Loyihada qabul qilamiz       | $n_{rog} = 1200 \text{ min}^{-1}$ |

### Yigirish

- |                                 |                                     |
|---------------------------------|-------------------------------------|
| 1. Texnik tavsifda              | $n_{urch} = 25000 \text{ min}^{-1}$ |
| 2. «Osborn tekstil» korxonasida | $n_{urch} = 14000 \text{ min}^{-1}$ |
| 3. Loyihada qabul qilamiz       | $n_{urch} = 15000 \text{ min}^{-1}$ |

## 1.9. O'timlar bo'yicha mashinalar nazariy unumdorligi hisoblash

### Tarash

$$A_n = \frac{\pi \cdot d_{a\kappa c.\delta a p.} \cdot n_{a\kappa c.\delta a p.} \cdot 60 \cdot T_{nul} \cdot e}{1000} = \frac{3,14 \cdot 0,706 \cdot 75 \cdot 60 \cdot 5 \cdot 2}{1000} = 100 \text{ kg/soat}$$

*Piltalash «I»*

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_{nun}}{1000} = \frac{800 \cdot 60 \cdot 5}{1000} = 240 \text{ kg/soat}$$

*Piltalash «II»*

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_{nun}}{1000} = \frac{700 \cdot 60 \cdot 5}{1000} = 210 \text{ kg/soat}$$

*Piliklash*

$$A_n = \frac{n_{poz} \cdot 60 \cdot T_{nun}}{K \cdot 1000^2} = \frac{1200 \cdot 60 \cdot 700}{39,24 \cdot 1000^2} = 1,28 \text{ kg/soat 1 ta rogulka uchun}$$

Yigirish

$$A_n = \frac{n_{ypq} \cdot 60 \cdot T_{un}}{K \cdot 1000^2} = \frac{15000 \cdot 60 \cdot 34}{590 \cdot 1000^2} = 0,05 \text{ kg/soat 1 ta urchuq uchun}$$

**Chiziqiy zichligi 34 teks tanda ip yigirishning qisqacha rejasi**

7-jadval

№	Mashinalar	Chiqayotgan mahsulot chiziqiy zichligi Tekst/Ne	Maxsulot nome ri Ne	Qo'shish soni d	Ummiy cho'zish soni E	Pishitish miqdori		Chiqaruvchi ishchi organ tezligi		Nazariy unum-dorlik kg/soat
						h <sub>t</sub> /h	K/TPI bur/m	V m/min	n min <sup>-1</sup>	
1	Tarash TS-07	5000/118		1					75	100
2	Piltalash I TD-03	5000/118		8	8			800	6705	240
3	Piltalash II HCR-1000	5000/118		8	8			700	5866	210
4	Piliklash Zinser-670	700/84		1	7,14	10,3 /1,08	39,24/ 0,99	348	1200	1,28
5	Yigirish Zinser-351	34/17.35		1	20,6	34,4 /3,59	590/ 14,95	417	15000	0,05

**O'timlar bo'yicha FVK, IUK va UFK larni tanlash va asoslash**

8-jadval

№	O'timlar	FVK		IUK		UFK
		«Osborn tekstil» korxonasida	qabul qilamiz	«Osborn tekstil» korxonasida	qabul qilamiz	
1	Tarash	0,95	0,95	0,96	0,96	0,91

2	Piltalash I	0,86	0,85	0,97	0,97	0,82
3	Piltalash II	0,86	0,85	0,97	0,97	0,82
4	Piliklash	0,78	0,90	0,98	0,98	0,88
5	Yigirish	0,94	0,95	0,97	0,97	0,92

$$Y\Phi K = \Phi BK \cdot IYK$$

bu erda: UFK – Uskunalarlardan foydalanish koeffitsienti.

FVK – Foydali vaqt koeffitsienti.

IUK – Ishlayotgan uskunalar koeffitsienti

### **1.10. O'timlar bo'yicha mashinalar unumdorligini hisoblash: amaliy unumdorlik**

*Tarash*

$$A_{amal} = A_n \cdot \Phi BK = 100 \cdot 0,95 = 95 \text{ kg/soat}$$

*Piltalash «I»*

$$A_{amal} = A_n \cdot \Phi BK = 240 \cdot 0,85 = 204 \text{ kg/soat}$$

*Piltalash «II»*

$$A_{amal} = A_n \cdot \Phi BK = 210 \cdot 0,85 = 178,5 \text{ kg/soat}$$

*Piliklash*

$$A_{amal} = A_n \cdot \Phi BK = 1,28 \cdot 0,90 = 1,152 \text{ kg/soat} \quad 1 \text{ ta rogulka uchun}$$

*Yigirish*

$$A_{amal} = A_n \cdot \Phi BK = 0,05 \cdot 0,95 = 0,0475 \text{ kg/soat} \quad 1 \text{ ta urchuq uchun}$$

### ***Hisobiy unumdorlik***

*Tarash*

$$A_{xuc} = A_{amal} \cdot IYK = 95 \cdot 0,96 = 91,2 \text{ kg/soat}$$

*Piltalash «I»*

$$A_{xuc} = A_{amal} \cdot IYK = 204 \cdot 0,97 = 197,8 \text{ kg/soat}$$

*Piltalash «II»*

$$A_{xuc} = A_{amal} \cdot IYK = 178,5 \cdot 0,97 = 173 \text{ kg/soat}$$

*Piliklash*

$$A_{xuc} = A_{amal} \cdot IYK = 1,152 \cdot 0,98 = 1,12 \text{ kg/soat} \quad 1 \text{ ta rogulka uchun}$$

## Yigirish

$$A_{xuc} = A_{amal} \cdot IYK = 0,0475 \cdot 0,97 = 0,046 \text{ kg/soat} \text{ 1 ta urchuq uchun}$$

### ***O'timlar bo'yicha mashinalarning nazariy, amaliy va hisobiy unumdorliklarini jamlash jadvali***

9-jadval

T/r	O'timlar	A <sub>n</sub> kg/soat	A <sub>amal</sub> kg/soat	A <sub>his</sub> kg/soat
1	Tarash Ts-07	100	95	91,2
2	Piltalash I TD-03	240	204	197,8
3	Piltalash II HCR-1000	210	178,5	173
4	Piliklash Zinser-670	1,28	110,6	107,5
5	Yigirish Zinser-351	0,05	47,88	46,3

### ***Qaytimlar, chiqindilar va ip chiqish miqdorini aniqlash jadvali***

Tolalar aralashmasiga ishlov berib uni yarim tayyor mahsulotga aylantirish va yigirish bosqichlarida uning bir qismi chiqindi sifatida yo'qoladi. Bu chiqindilar qaytimlar, tolali va ko'rinxmas chiqindilar guruhlariga bo'linadi.

Har bir guruhga bir necha turdag'i chiqindilar kiradi. Ularni aralashmadan chiqish miqdori formulalar yordamida yoki belgilangan me'yorlar asosida aniqlanadi. Me'yorlar korxonalarini tajribalari, tadqiqotlar natijari asosida belgilangan.

Maxsulotlar chiqish miqdori aralashmaga nisbatan hisoblanganligi uchun dastlabki o'timida 100% dan chiqindilar miqdorini ayirib topiladi. Navbatdag'i o'timlarda esa avvalgi o'timdag'i chiqish miqdoriga nisbatan kamaytirib borish tartibida hisoblanadi,

10-jadval

Qaytimlar va chiqindilar	Titish tozalash	Tarash	Piltalash «I»	Piltalash «II»	Pilklash	Yigirish	Jami
<b>Qaytimlar:</b>							
<i>Pilta uzug'i</i>		0,208	0,26	0,26	0,312	0,21	<b>1,04</b>
<i>Pilik uzug'i</i>					0,14		<b>0,35</b>
<b>Jami qaytimlar</b>							<b>1,39</b>
<b>Ko`rinadigan chiqindilar.</b>							
<i>Momiq (xalqachalar)</i>						1,95	<b>1,95</b>
<i>Tozalashdagi tuganak va momiq</i>	0,1						<b>0,1</b>
<i>Tarashdagi tuganak va momiq</i>		4,3					<b>4,3</b>
<i>Shlyapka tarandisi</i>		2,1					<b>2,1</b>
<i>Ustki valiklar va tozalagichlar momig'i</i>					0,692	1,038	<b>1,73</b>
<i>Chigallangan ip</i>						0,1	<b>0,1</b>
<i>Toza supurindi</i>		0,05	0,025	0,025	0,05	0,1	<b>0,25</b>
<i>Iflos supurindi</i>		0,05	0,025	0,025	0,05	0,1	<b>0,25</b>
<i>Filtr momig'i</i>	0,2925	0,1575					<b>0,45</b>
<b>Jami ko`rinadigan chiqindilar</b>	0,3925	6,6575	0,05	0,05	0,792	3,288	<b>11,23</b>
<b>Ko`rinmaydigan chiqindilar</b>	1,56	0,84					<b>2,4</b>
<b>Qaytmaydigan chiqindilar</b>	1,8395	0,9905					<b>2,83</b>
<b>Jami,</b> qaytimlar, ko`rinadigan va ko`rinmaydigan hamda qaytmaydigan chiqindilar	3,792	8,488	0,05	0,05	0,792	3,288	<b>16,46</b>
<b>Xomaki mahsulot va ip chiqishi</b>	96,21	87,72	87,67	87,62	86,82	83,54	<b>100</b>
<b>Orttirish koeffitsienti - <math>O_k</math></b>							
$O_k = \frac{B}{B_{\bar{u}}}$	1,1516	1,0500	1,0494	1,048	1,039	1	

## ***O'timlar bo'yicha orttirish koeffitsientini hisoblash***

Orttirish koeffitsienti 100 kg. ip ishlab chiqarish uchun qancha xom-ashyo kerakligini bildiradi. U quyidagicha hisoblanadi:

Titish-tozalash o'timi uchun

$$O_{\kappa\phi} = \frac{B_{mum}}{B_{uu_e}} = \frac{96,21}{83,54} = 1,1516$$

Tarash o'timi uchun

$$O_{\kappa\phi} = \frac{B_{map}}{B_{uu_e}} = \frac{87,72}{83,54} = 1,0500$$

Piltalash «I» o'timi uchun

$$O_{\kappa\phi} = \frac{B_{n1}}{B_{uu_e}} = \frac{87,67}{83,54} = 1,0494$$

Piltalash «II» o'timi uchun

$$O_{\kappa\phi} = \frac{B_{n2}}{B_{uu_e}} = \frac{87,62}{83,54} = 1,0488$$

Piliklash o'timi uchun

$$O_{\kappa\phi} = \frac{B_{nu1}}{B_{uu_e}} = \frac{86,82}{83,54} = 1,0393$$

Yigirish o'timi uchun

$$O_{\kappa\phi} = \frac{B_{uu_e}}{B_{uu_e}} = \frac{83,54}{83,54} = 1,0$$

### **1.11. O'timlar bo'yicha pakovkalar parametrlarini hisoblash**

*O'timlar bo'yicha mahsulotlar chiqishi*

11-jadval

Nomi	Titish tozalash	Tarash	Piltalash I o'tim	Piltalash II o'tim	Piliklash	Yigirish
mahsulot chiqishi	96,21	87,82	87,67	87,62	86,82	83,54

Ushbu qiymatlardan foydalanib pakovkalar massalarini hisoblaymiz.

### **1. Naychaga o`ralgan ip massasi va uzunligini hisoblash.**

Yigirish mashinasida naychaga o`ralgan ip massasini 80 g deb qabul qilamiz. Bu massali pochatkalardan nechtasi bitta g`altakdagil pilikdan tayyorlanishini aniqlaymiz.

Faltakdagil pilik massasi 2400 gramm deb qabul qilamiz. Bitta g`altakdagil pilikdan nechta ip naychasi qoldiqsiz chiqishi mumkinligi aniqlaymiz:

$$m_{naych} = \frac{G_{naych}}{G_{un}} \cdot \frac{B_{un}}{B_{naych}} = \frac{2400}{80} \cdot \frac{83,54}{86,82} = 28,86 \approx 29 \text{ ta deb qabul qilamiz.}$$

Naychalar sonini yaxlitlash, ip massasini kamaytirish yoki g`altakdagil pilik massasini oshirib korrektirovka (tuzatma) kiritiladi.

Naychadagi ipning tuzatmadan so`ngi massasi quyidagicha hisoblanadi.

$$G_{un} = \frac{G_{naych}}{m} \cdot \frac{B_{un}}{B_{naych}};$$

Bu erda:  $G_{ip}$  – ipning msassasi, g

$G_{pil}$  – pilikning massasi, g

$V_{ip}$  – ip chiqishi, %

$m$  – naychalar soni, dona

$V_{pil}$  – pilta chiqishi, %

$$G_{un} = \frac{G_{naych}}{m} \cdot \frac{B_{un}}{B_{naych}} = \frac{2400}{29} \cdot \frac{83,54}{86,82} = 79,63 \text{ gr}$$

Naychadagi ip uzunligi –  $L_{ip}$  ni hisoblaymiz.

Ipning chiziqiy zichligi  $T_{ip} = 20$  teks.

$$L_{un} = \frac{G_{un} \cdot 1000}{T_{un}} = \frac{79,63 \cdot 1000}{34} = 2342 \text{ m.}$$

Demak, g`altakdagil pilik massasi 2400 g bo`lsa, undan har biri 2342 m. lik 29 ta naychada ip o`rami olinadi.

### **2. Faltakka o`ralgin pilik massasi va uzunligini hisoblash.**

Agar naychadagi ip massasi 79,63 g bo`lsa

$$G_{nun} = \frac{B_{nun}}{B_{un}} \cdot G_{un} \cdot m = \frac{86,82}{83,54} \cdot 79,63 \cdot 29 = 2400$$

$$G_{nun} = \frac{90,14}{87,5} \cdot 77,6 \cdot 25 = 1999 \approx 2000 \text{ g}$$

massadagi pilik g'altaklarini  $T=700$  teks pilik tayyorlash kerak.

U holda g'altakdagi pilikning uzunligi:

$$L_{nun} = \frac{G_{nun} \cdot 1000}{T_{nun}} = \frac{2400 \cdot 1000}{700} = 3429 \text{ m. ga teng bo`ladi.}$$

Piliklash mashinasida g'altakdagi pilik uzunligini yaxlitlab

$L_{nun} = 3430$  m deb olamiz. U holda g'altakdagi pilikning haqiqiy massasi

$$G_{nun} = \frac{700}{1000} \cdot 3430 = 2401 \text{ g}$$

So`ngra, chiqindini hisobga olib tekshiramiz,

$$E = \frac{T_{nun}}{T_{un}} = \frac{L_{un}}{L_{nun}} \cdot m = \frac{2342}{3430} \cdot 29 \approx 19,8$$

$E \approx U$  cho`zish miqdori va uzayish.

$$Y = E \cdot \left( \frac{100 + \%y}{100} \right) = E \cdot \frac{B_{nun}}{B_{un}} = 19,8 \cdot \frac{86,82}{83,54} = 20,57$$

Tekshirish:

$$E = \frac{T_{nun} B_{un}}{T_{un} B_{nun}} = \frac{700 \cdot 83,54}{34 \cdot 86,82} = 19,81 \approx 20$$

### **3. Piltalash II o`timda tazga taxlangan pilta massasi va uzunligini hisoblash.**

II o`timda tazga taxlangan pilta massasini  $G_{nII} = 28$  kg qabul qilamiz. Undan chiqadigan pilik g'altaklari sonini aniqlaymiz.

$$m_{zal} = \frac{G_{nII}}{G_{nun}} \cdot \frac{B_{nun}}{B_{nII}} = \frac{28000}{2400} \cdot \frac{86,82}{87,62} = 11,9 \approx 12$$

Tazdagagi pilta massasini hisoblaymiz.

$$G_{nII} = \frac{m_{eal} \cdot G_{nul} \cdot B_{nII}}{B_{nul}} = \frac{12 \cdot 2400 \cdot 87,62}{87,62} = 29320 \text{ g} = 29,32 \text{ kg.}$$

Ta`minlovchi tazdagi piltaning kompyuterga kiritiladigan uzunligini aniqlaymiz.

$$L_{nII} = \frac{G_{nII} \cdot 1000}{T_{nII}} = \frac{29320 \cdot 1000}{5000} = 5864 \text{ m.}$$

Tazdagi piltaning haqiqiy massasini hisoblaymiz.

$$G_{nII} = L_{nII} \cdot \frac{T_{nII}}{1000} = 5864 \cdot \frac{5000}{1000} = 29320 \text{ g.}$$

#### **4. Piltalash “I” o`timda tazga taxlangan pilta massasi va uzunligini hisoblash.**

$d = 8$ ;  $G_{nI} = 2401 \text{ g}$ ; deb qabul qilamiz va II o`timda chiqishi mumkin bo`lgan tazlar sonini aniqlaymiz.

$$m_{nII} = \frac{G_{nI} \cdot d \cdot B_{nII}}{G_{nII} \cdot B_{nI}} = \frac{287 \cdot 8 \cdot 90,7}{24150 \cdot 91,1} = 7,25 \approx 8 \text{ ta}$$

“I” o`tim piltaning tazdagi massasi aniqlaymiz.

$$G_{nI} = \frac{m_{nII} \cdot G_{nI} \cdot B_{nI}}{B_{nII}} = \frac{12,1 \cdot 2401 \cdot 87,67}{86,82} = 24972 \text{ g.}$$

Tazdagi piltaning uzunligi.

$$L_{nI} = \frac{G_{nI} \cdot 1000}{T_{nI}} = \frac{24972 \cdot 1000}{5000} = 4994 \text{ m.}$$

Tazdagi piltaning xaqiqiy massasi.

$$G_{nI} = L_{nI} \cdot \frac{T_{nI}}{1000} = 4994 \cdot \frac{5000}{1000} = 24972 \text{ g.}$$

#### **5. Tarash o`timida tazga taxlangan pilta massasi va uzunligini hisoblash.**

Tazdagi taralgan pilta massasini  $G_T = 38 \text{ kg}$  deb qabul qilamiz va “I” o`timda chiqishi mumkin bo`lgan tazlar sonini aniqlaymiz.

$$m_{nI} = \frac{G_T \cdot d \cdot B_{nI}}{G_{nI} \cdot B_T} = \frac{38 \cdot 8 \cdot 87,67}{24,972 \cdot 87,72} = 12,16 \approx 12$$

Tazga taxlangan taralgan pilta massasi.

$$G^r_T = \frac{m_{nl} \cdot G_{nl} \cdot B_T}{d \cdot B_{nl}} = \frac{12 \cdot 24972 \cdot 87,72}{8 \cdot 87,67} = 37400 \text{ g. yoki } 37,4 \text{ kg.}$$

Tazga taxlangan taralgan piltaning uzunligi.

$$L_T = \frac{G^r_T \cdot 1000}{T_T} = \frac{37400 \cdot 1000}{5000} = 7480 \text{ m.}$$

## 1.12. Soatbay vazifani aniqlash

Soatbay vazifa yigirish fabrikasining xar bir o'timida 1 soatda ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini bildiradi.

Topshiriqda berilgan loyiha quvvatidan kelib chiqib, avval tarash va yigirish tsexining so'ogra qolgan o'timlarning soatbay vazifasini aniqlaymiz.

Loyiha topshirig'iga asosan quvvat  $M = 2$  ta apparatda berilgan.

$$C\epsilon_{nul} = M \cdot A_{xuc.nul} = 2 \cdot 198,9 = 397,8 \text{ kg}$$

Yigirish o'timi

$$C\epsilon_{uu2} = \frac{C\epsilon_{n1}}{O\kappa_{n1}} = \frac{397,8}{1,0494} = 379 \text{ kg.}$$

Titish tozalash o'timi

$$C\epsilon_{mum} = C\epsilon_{uu2} \cdot O\kappa_{mum} = 379 \cdot 1,1516 = 436,45 \text{ kg.}$$

Tarash o'timi.

$$C\epsilon_{map} = C\epsilon_{uu2} \cdot O\kappa_{map} = 379 \cdot 1,0500 = 397,95 \text{ kg.}$$

Piltalash I-o'timi

$$C\epsilon_{n1} = C\epsilon_{uu2} \cdot O\kappa_{n1} = 379 \cdot 1,0494 = 397,72 \text{ kg.}$$

Pitalash I-o'timi

$$C\epsilon_{n2} = C\epsilon_{uu2} \cdot O\kappa_{n2} = 379 \cdot 1,0488 = 397,49 \text{ kg.}$$

Piliklash o'timi

$$C\epsilon_{nul} = C\epsilon_{uu2} \cdot O\kappa_{nul} = 379 \cdot 1,0393 = 393,89 \text{ kg.}$$

Yigirish o'timi.

$$C\epsilon_{uu2} = C\epsilon_{uu2} \cdot O\kappa_{uu2} = 379 \cdot 1 = 379 \text{ kg.}$$

## *O'timlar bo'yicha chiqaruvchi ishchi organlar va mashinalar sonini hisoblash*

Tarash mashinalari soni

$$M_{map} = \frac{C\epsilon_{map}}{A_{xuc}} = \frac{397,95}{90,725} = 4,2 \approx 4$$

Piltalash «I» o'tim mashinalari soni

$$M_{n1} = \frac{C\epsilon_{n1}}{A_{xuc}} = \frac{397,72}{198,9} = 1,99 \approx 2$$

Piltalash «II» o'tim mashinalari soni

$$M_{n2} = \frac{C\epsilon_{n2}}{A_{xuc}} = \frac{397,49}{174,04} = 2,1 \approx 2$$

Piliklash mashinalari soni

$$M_{nu1} = \frac{C\epsilon_{nu1}}{A_{xuc} \cdot m} = \frac{393,89}{1,12 \cdot 96} = 3,66 \approx 4$$

m – bitta piliklash mashinasidagi rogulkalar soni

Yigirish mashinalari soni

$$M_{uu2} = \frac{C\epsilon_{uu2}}{A_{xuc} \cdot m} = \frac{379}{0,046 \cdot 1008} = 8,1 \approx 8$$

m – bitta yigirish mashinasidagi urchuqlar soni

## *O'timlar bo'yicha chiqaruvchi organlar va mashinalar sonini umumlashtirilgan jadvali*

12-jadval

T/r	Mashinalar nomi	Nazariy unumdorlik kg/s	Soatbay vazifa kg/s	Bitta mashinadagi chiqarish organlari soni	Hisoblangan		Qabul qilingan	Bitta apparatdagи mashinalar soni
